

SUG‘ORISH KANALINI NIVELIRLASH
Otabayeva Sevara Ergash qizi
Urganch davlat universiteti
Geodeziya, kertografiya va kadastr yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushu maqolada niveler asbobi yordamida o‘lchangan balandlik bo‘yicha chiziqli inshoot trassasi jurnalini bilan tanishish ularni an’anaviy va dasturiy mahsulotdan foydalanib hisoblab chiqish o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: niveler asbobi, reyka, nivelerlash jurnali va qalam

ВЫРАВНИВАНИИ ИРРИГАЦИОННОГО КАНАЛА
Отабаева Севара Эргаш кизи
Ургенчский государственный университет
Студент факультета геодезии картографии и кадастра

Аннотация: В данной статье изучается ознакомление с логами маршрута линейного сооружения по высоте, измеренными с помощью нивелира, их расчет с использованием традиционных и программных и продуктовую.

Ключевые слова: нивелир, линейка, нивелир и карандаш.

LEVELING THE IRRIGATION CHANNEL
Otabayeva Sevara Ergash kizi
Urgench State Universitet
A student of geodesy, cartography and cadaster

Abstract: In this article, familiarization with the log of the linear structure route by the height measured with the help of a leveling tool, their calculation using traditional and software products is studied.

Key words: leveling tool, ruler, leveling log and pencil.

Kirish: Nivelirlashda bajariladigan dala ishlari quyidagi tartibda olib boriladi.

Asboblarni olish va ko‘zdan kechirish. Geometrik nivelirlashni bajarish uchun geodezik asbob niveler shtativ, ikkita niveler reykasi, lenta, qoziqlar, bolg‘a, geometrik nevelirlash jurnali, qalam va lezviya olinadi.

Nivelirlash ishlarini boshlashdan avval nivelir va nivelir reykalarini tekshirib ko‘rish kerak. Xar qaysi nivelir o‘z xususiyatiga qarab tekshiriladi. Quyma nivelirlar quyidagi shartlarga javob berishi kerak.

- 1.Ko‘rish trubasi vizir o‘qi silindrik adilak o‘qiga parallel bo‘lishi kerak.
- 2.Silindrik adilakning o‘qi nivelirning aylanish o‘qiga perpendikulyar bo‘lishi kerak.
- 3.To‘rning gorizontal ipi nivelirning aylanish o‘qiga perpendikulyar bo‘lishi kerak.
- 4.Taglikdagi doiraviy adilakning o‘qi nivelirning aylanish o‘qiga paralel bo‘lishi kerak.

Quyma va boshqa tipdagи nivelirlarni yuqoridagi shartlar bo‘yicha tekshirish tartibi ko‘rsatkichlar va oxirida berilgan adabiyotlarda batafsil yoritilgan. Agar biror shart bajarilmayotganligi ayniqlansa asbob tuzatiladi.

Asosiy qism: Nivelirlash lozim bo‘lgan joyni rekognossirovka qilish. Bunda trassa yo‘nalishi boshlang‘ich va oxirgi nuqtalar o‘rnini joyda belgilanadi, trassa burilish burchaklari va tomonlari o‘lchanadi trassani piketlarga bo‘lib chiqiladi va ularni o‘rnini joyda belgilanadi.

Trassani nivelirlash. Bu ish o‘rtadan nivelirlash usuli bilan quyidagi tartibda bajariladi:

A va V nuqtalariga vertikal qilib reyka o‘rnataladi va ularni orasiga ulardan bir xil masofada nivelir o‘rnataladi. Reyka o‘rnatalgan nuqtalarni piket, asbob o‘rnatalgan nuqtalarni stansiya deb ataladi. Orqadagi nuqtaga o‘rnatalgan reykadan olingan sanoqni a bilan oldindagi nuqtaga o‘rnatalgan reykadan olingan sanoqni esa v bilan belgilanadi. Nisbiy balandlikni h bilan belgilanadi.

Shunda A nuqtaga nisbatan B nuqtaning nisbiy balandligi quyidagi formula bilan topiladi.

$$h = a - b$$

Agar $a - b$ bo‘lsa nisbiy balandlik musbat $a - b$ bo‘lsa manfiy ishorali bo‘ladi.

Har bir stansiyada ish quyidagi tartibda olib boriladi:

- nivelir ko‘rish trubasining vizir o‘qini orqadagi reykaga qaratib va elevatsion vint bilan nivelir silindrik adilagini ikkala yarim uchini aniq bir bir biriga to‘g‘rilab iplar setkasining o‘rta gorizontal ipi bo‘yicha reykani qora tomonidan sanoq olinadi.
- Nivelir ko‘rish trubasining mahkamlovchi vintini bo‘shatib ko‘rish trubasini vizir o‘qini oldindagi reykaga qaratiladi va uning qora tomonidan yuqoridagi tartibda sanoq olinadi.
- Oldindagi reykani qizil tomonidan sanoq olinadi.
- Orqadagi reykani qizil tomonidan sanoq olinadi.

Yuqorida olingan sanoqlar geometrik nevilirlash jurnaliga yozib boriladi. Har bir stansiyada o'lehash ishlari tugashi bilan asbobni joyidan ko'zg'atmasdan olingan sanoqlar kontrol qilinadi. Buning uchun orqadagi va oldindagi reykalarni qora va qizil tomondan olingan sanoqlarni farqi topiladi ya'ni

$$h_1 = a_1 - b_1 \text{ qora}$$
$$h_2 = a_2 - b_2 \text{ qizil}$$

Ikki marta xisoblab chiqarilgan qiymatlar orasidagi farq 4mmdan oshmasligi kerak aks xolda stansiya kuzatish qaytadan bajariladi.

Hisoblarni to'g'rilingiga ishonch hosil qilgach niveler bilan keyingi stansiyaga o'tiladi. Bunda orqadagi reykada turgan kishi reykani keyingi nuqtaga olib o'tadi va u endi oldingi bo'ladi.

Oldindagi reykada turgan kishi esa o'z o'rnida qoladi va u reykani qora tomonini niveleriga birinchi bo'lib qaratadi. Ikkinci stansiyada ham ish xuddi stansiyada bo'lgani kabi olib boriladi.

Nivelirlashda ikki qo'shni stansiya uchun umumiy bo'lgan nuqtalarga bog'lovchi nuqtalar deyiladi.

Agarda ikkita piket orasini bitta stansiyadan nivelerlash mumkin bo'lmasa, u xolda piketlar orasi bir stansiya o'rniga ikki yoki bir necha stansiyada turib nivelerlanadi. Bunda bog'lovchi nuqta sifatida x nuqtalar tanlanadi va qoziq bilan maxkamlanadi. Ular orasidagi masofalar o'lchanmaydi. Ikki piket orasidagi nisbiy balandlik esa shu piketlar orasidagi stansiyalarda topilgan nisbiy balandliklar yig'indisiga teng bo'ladi.

Oraliq va ko'ndalang chiziqda belgilangan nuqtalarni nivelerlash. Oraliq nuqtalar piketlar orasidagi past baland joylardan olinadi. Ularni o'rni xam joyda qoziq qoqib belgilab qo'yiladi. Ko'ndalang chiziqlarni nivelerlash chizig'iga perpendikulyar qilib undan xar ikki tomonda 5-30m gacha olinadi, ularning umumiy uzunlig 10-60m bo'lishi mumkin. Oraliq va ko'ndalang nuqtalarni nivelerlash bog'lovchi nuqtadan olingan sanoqlarni ishlab chiqib bo'lingandan keyin bajariladi. Bunda orqadagi reyka piketdan olinadi va ketma-ket oraliq nuqtalarga qo'yib chiqiladi. So'ngra trubani vizir nurini reykaga to'g'rilib reykani faqat qora tomondan sanoq olinadi. Olingan sanoq jurnalni oraliqdagi grafasiga yoziladi.

Tafsilotni planga olish. Piketlash jurnalni.

Nivelirlash yo'lini piketlarga bo'lish bilan bir vaqtida nivelerlash chizig'idan xar ikki tomonga 50m gacha bo'lgan joy tafsiloti asbob bilan yoki chamalab trassaga nisbatan syomka qilinadi. Plan olishda to'g'ri burchakli koordinatalar burchakli yoki kesishtirish usullari qo'llanilishi mumkin. Plan olish natijalari piketlash jurnalida qayd etib boriladi. Odatda piketlash jurnalni

milimetrali qog‘ozga chiziladi. Unda trassa o‘qi to‘g‘ri chiziq shaklida burilish burchaklari strelka bilan ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bundan tashqari trassadagi piket va oraliq nuqtalari ko‘ndalang chiziq va undagi nuqtalar, tafsilotlarni konturlari, shartli belgilari ko‘rsatiladi. Piketlash jurnali 1:1000 yoki 1:2000 mashtabda chiziladi.

Kameral ishlar

Nivelirlash jurnalini tekshirish va dala ishlarini nazorat qilish.

Nivelirlash jurnalini tekshirish unda dalada bajarilgan hamma kuzatishlarni va hisoblashlarni sinchiklab ko‘rib chiqishdan boshlanadi. Bu esa ishdagi mumkin bo‘lgan xatolarni aniqlash va yo‘qotish maqsadida bajarildi.

Nisbiy va o‘rtacha nisbiy balandliklar to‘g‘ri xisoblab chiqilganligin tekshirish uchun niveler jurnalining xar bir beti tagiga 3, 4, 6, 7, 8 va grafalar yig‘indisi aloxida – aloxida yoziladi. Mana shunda 3 va 4 yig‘indilarining ayirmasi tegishli ishora bilan 6 va 7 grafa qiymatlarini algebraik yig‘indisining ikkilanganligiga teng bo‘lishi teng bo‘lishi kerak. Ya’ni,

$$(\Sigma_3 - \Sigma_4) / 2 \leq \Sigma_6 / 2 \leq \Sigma_7$$

Bog‘lanmaslik xatosini aniqlash va niveler yo‘llarini bog‘lash.

Nivelirlash yopiq poligon bo‘yicha bajarilsa u vaqtida xamma nisbiy balandliklarni algebraik yig‘indisi nolga teng bo‘lishi kerak ya’ni.

$$f_h = \Sigma h = 0$$

Qo‘yarli bog‘lanmaslik xato cheki esa quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$f_h = \pm 30 \cdot L \text{ mm} \quad f_h = \pm 30 \cdot 0.5 \text{ mm} = 21 \text{ mm}$$

Bu yerda L – km ifodalangan nivelerlangan yo‘l uzunligi.

Nivelirlash otmetkasi ma’lum ikki nuqta orasida bajarilgan nisbiy balandliklarni nazariy yig‘indisi oxirgi va boshlang‘ich nuqtalar otmetkalarini ayirmasiga teng ya’ni

$$\Sigma_{h_{max}} = H_o - H_b$$

Yoki nivelerlash xatosi

$$f_h = \Sigma_{h_{min}} - H_o - H_b$$

Bog‘lanmaslik xatosi yo‘l qo‘yarli bo‘lsa uni teskari ishora bilan o‘lchangan nisbiy balandliklarga barobar yoki xisoblangan otmetkalarga tarqatib nisbiy balandliklar yoki otmetkalar tuzatiladi.

Bog‘lovchi va oraliq nuqtalarning otmetkalarini xisoblash.

Bog‘langan nisbiy balandliklardan foydalanib otmetkasi ma’lum boshlang‘ich nuqtadan boshlab quyidagi formula asosida hamma bog‘lovchi nuqtalari hisoblab chiqariladi.

$$N_{s+1} = N_s + h$$

bu erda N_{s+1} – otmetkasi aniqlanayotgan nuqta

N_s – boshlang‘ich otmetkasi ma’lum nuqta

H – shu ikki nuqta orasidagi nisbiy balandlik.

Otmetkalarni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri hisoblanganligi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$N_0 - N_s = \sum h o'rtta$$

Oraliq nuqtalarni otmetkalari quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi.

$$N_s = AG - as$$

Bu erda N_s – otmetkasi aniqlanayotgan oraliq nuqta

AG – asbob gorizonti

as – oraliq nuqtaga o‘rnatilgan reykani qora tomonidan olingan sanoq

Asbob gorizonti quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$AG = N_{or} - O_{or}$$

N_{or} – orqadagi piketni otmetkasi

O_{or} – orqadagi piketga o‘rnatilgan reykani qora tomonidan olingan sanoq.

Trassani nivelirlash jurnali

Beka tlar №	Piket- lar №	Reykadan sanoqlar			Nisbiy balandliklar h, mm			Asbob gori zonti Ag,m	Baland ligi H, m
		Orqa- dagi a	oldindagi b	oraliqdagi s	Hisob langan, h _h	O‘rtacha h _{o'r}	Tuzatil gan, h _t		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Rp5	5949				-3.5			552.776
		1163			-0838	-0889.5	-0893		
	PK 0		6787		-0941				551.883
			2104						
2	PK 0	5731				-2			551.833
		1044			-1278	-1229	-1231		
	PK 1		7009		-1180				550.652

			2224						
3	PK 1	5169				-2.5			550.652
		0384			-2400	-2449.5	-2452		
	X		7569		-2499				548.200
			2883						
4	X	5034				-1			548.200
		0349			-2570	-2520	-2521	548.549	
	+68.12			1212	-2470				547.337
	PK 2		7604						545.679
			2819						
5	PK 2	5343							545.679
		0557						546.236	
	+76.38			6895		-2.5			539.341
	O° 10.0			1661	-2104	-2155.5	-2158		544.575
	O° 20.0			1740	-2207				544.496
	Ch 8.45			1825					544.411
	Ch 20.0			1445					544.791
	PK 3		7447						543.521
			2764						
	\sum_a	$\sum_{a=}$ 30723	$\sum b=$ 38723		\sum_h $h=$ -18487	$\sum h_o$ $r=$ -4000			
6	PK 3	6571				-3.5			543.521
		1885			+0765	+0815.5	+0812		
					+0866				
	PK 4		5806						544.333
			1019						
7	PK 4	7694							544.333
		2911				-2.5			

					+2091	+2042.5	+2040	547.244	
	+68.76			2265	+1994				544.979
	PK 5		5603						546.373
			0917						
	-----	-----	-----	-----	-----	-----
8	PK 5	6578				-2			546.373
		1893			+0487	+0538	+0536		
					+0589				
	Rp 6		6091						546.909
			1304						
	-----	-----	-----	-----	-----	-----
	\sum_a	$\sum_{a=}$	$\sum_{v=}$		\sum_h	$\sum_{h_o=}$			
		58255	30355		17109	-8554.5			


$$\sum a = 58255 \quad \sum b = 69950 \quad \sum h_h = -11695 \quad \sum h_{o \cdot r} = -5847.5$$

$$\frac{\Sigma a - \Sigma b}{2} = \frac{-11695}{2} = -5847.5$$


$$fh_{xam} = \sum h_{yp} - (H_{RP17} - H_{RP11}) = -5847.5_{MM} - (546.909 - 552.776) = -5847.5 + 5867.0 = +19.5$$

$$fh_{cheklan} = 30_{MM} \sqrt{0,5} = ^+_- 21$$

Trassasining bo‘ylama profili



Trassasining ko'ndalang profili



Xulosa: Trassani nivelirlash haqida, ayniqsa trassani nivelirlash xatosini tenglash, nuqtalar balandligini hisoblashni bajarish.

Trassa nivelirlash yo‘l qurilishida ham muhim ahamiyatga ega. Yangi shahar va qishloqlarni yo‘llarini bunyod etish, aholi yashaydigan hududlarini planlashtirish kabi ishlarni nivelirlashsiz taasavvur qilib bo‘lmaydi shuningdek sug‘rish kanallarini ham. Plan, profillar, ularning uzunliklarini hisoblash bilan bog‘liq yo‘l inshootlarini loyihalsh, qurishda zarur bo‘lgan nuqtalar balandligini va ular farqini aniqlash uchun bajariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshpo‘latov S.A., Avchiyev Sh.K., Kovalyov N.V. Oliy geodeziya.
2. O‘tanov O‘. “Geodeziya” o‘quv qo‘llanma Toshkent “Bilim” 2005
3. Avchiyev Sh.K Amaliy geodeziya “Voris nashriyot” 2010
4. Oxunov Z.D. Geodeziyadan proktikum. Toshkent, “Universitet”, 2009